

**INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY MATNLARIDA MA’NO KO‘CHISHINING SEMANTIK
VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

Davirbek Xasanov

Annotatsiya. Ushbu tezisda ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida ma’no ko‘chishining semantik va pragmatik xususiyatlari hamda o‘zaro farqli jihatlar xususida so‘z yuritiladi. Qayd etish lozimki, nomlari keltirilgan tillardagi badiiy matnlarda aks etgan ma’no ko‘chishlari tilning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra belgilanadi.

Kalit so‘zlar: ingliz va o‘zbek badiiy matnlari, ma’no ko‘chishi, semantik xususiyat, pragmatik xususiyat, farqli jihatlar.

Abstract. This thesis discusses the semantic and pragmatic features of the transfer of meaning in English and Uzbek literary texts, as well as their differences. It should be noted that the changes in meaning reflected in the artistic texts of the mentioned languages are determined according to the specific characteristics of the language.

Keywords: English and Uzbek literary texts, transfer of meaning, semantic feature, pragmatic feature, different aspects.

Ingliz va o‘zbek tili ikki til oilasiga mansub bo‘lib, ushbu tillar doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar qiyosiy tilshunoslik sohasiga taalluqlidir. Bizning ushbu tezisimiz ham bevosita nomlari qayd etilgan tillarda badiiy matnlarda qo‘llangan ma’no ko‘chishlarining semantik va pragmatik sifatlariga oiddir. Semantika tildagi mavjud birliklarning ma’nosini aniqlashga qaratilgan soha hisoblansa, pragmatika til birliklarining ma’noga qanday ta’sir qilishi, og‘zaki nutqda ma’noning qay tarzda voqelanishiga oid ifodalarni talqin qiluvchi til sohasi sanaladi. Ingliz va o‘zbek tilida mavjud matnlarda ma’no ko‘chishining semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash jarayonida ularning o‘ziga xos o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ma’no ko‘chishi doirasida iboralarni tahlilga tortadigan bo‘lsak, o‘zbek tilida iboralar ma’nosi bir so‘zga teng birliklar sifatida qaraladi, xususan, **yog‘ tushsa yalagudek** birligi **toza** ma’nosiga teng, shuningdek, ingliz tilida ham iboralar til xususiyatidan kelib chiqqan holda xilma-xillik kasb etadi. **“The apple of my eye”** iborasi juda muhim insonlarga nisbatan ishlatilib[1], o‘zbek tiliga ushbu iborani **“ko‘z qorasi”** tarzida talqin qilish mumkin (Sen mening ko‘z qoramsan).

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, ingliz va o‘zbek tillarida mavjud ma’no ko‘chishlarining semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlashda ayrim qiyinchiliklarga duch kelish mumkin, xususan, til tuzilmalari, ya’ni ingliz va o‘zbek tillarida o‘ziga xos grammatik tuzilmalar va jumla shakllari mavjud. Bu idiomatik iboralarni, metaforalarni va majoziy tilni aks ettirishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin[5]. Bundan tashqari, madaniy fon ham o‘zaro qiyoslash jarayonida qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Ikkala til ham boshqa til o‘quvchilari tomonidan tushunilmasligi mumkin bo‘lgan madaniy havolalar va ishoralarga boy. Tarjimonlar ushbu madaniy farqlarni hisobga olishlari va tegishli ekvivalentlarni topishlari kerak. Ingliz va o‘zbek matnlarida mavjud metoforik ifodalarning semantik va pragmatik xususiyatlarini aks ettirishda lingvokulturologik xususiyatlarni ham e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Badiiy matnlardagi semantik va pragmatik xususiyatlarni aniqlash jarayonida quyidagilarni ham e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir:

Ma'noni to'raligicha aks ettirish

Ijodkorlik

Madaniy xabardorlik

Pragmatik va semantik tahlil jarayonida tanlangan birlikning ma'no xususiyati hamda uning og'zaki nutqda namoyon bo'lishini aniqlashda uning mazmunini to'raligicha aks ettirish maqsadga muvofiq, bu lingvistik tahlilning yanada keng qamrovli ochib berilishiga yordam beradi[1]. Jumladan, boshiga ko'tarmoq ifodasining yuqoridagi qoidaga muvofiq tahlilini amalga oshirsak.

T/r	Turi	Izoh
1	Boshiga ko'tarmoq	I. Qattiq ovozda shovqin qilmoq. II. Hurmat qilmoq, e'zozlamoq.
2	Badiiy matnda aks etishi	Komila asabiylashib butun uyni boshiga ko'tardi. U butun umr onasini boshiga ko'tardi.
3	Og'zaki nutqda aks etishi	Yuqoridagi mazmundan kelib chiqqan holda og'zaki nutqda aks etadi.

Semantik va pragmatik xususiyatlarni aniqlashdagi ikkinchi talab bu tarjimon va tilshunoslarning ijodkorligidir. Tarjima jarayonida ayrim o'rinlarda ijodkorlikka urg'u berilsa, maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ikki til o'rtasidagi madaniy farqlar va ular matnning ma'nosiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini bilish juda muhimdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, badiiy matnlarda ma'no ko'chishining semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish bizga ularni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Ingliz va o'zbek adabiy matnlari o'rtasida ma'no uzatishning o'ziga xos muammolari va yondashuvlarini o'rganib chiqib, biz insoniy muloqotning boy muhitini hamda til, madaniyat va ma'no o'rtasidagi murakkab bog'lanishlarni chuqurroq tushunamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. H. Abrams and Geoffrey Galt Harpham, A Glossary of Literary Terms, 11th ed. (Stamford, CT: Cengage Learning, 2015), 134.
2. Aristotle, W. Rhys Roberts, Ingram Bywater, and Friedrich Solmsen. Rhetoric. New York: Modern Library, 1954. Print.
3. Garret, Jan. "Aristotle on Metaphor." , Excerpts from Poetics and Rhetoric. N.p., 28 March 2007. Web. 29 Sept. 2014.

4. Moran, Richard. 1996. Artifice and persuasion: The work of metaphor in the rhetoric. In *Essays on Aristotle's rhetoric*, ed. Amelie Oksenberg Rorty, 385–398. Berkeley: University of California Press.
5. Ortony, Andrew (Winter 1975). "Why metaphors are necessary and not just nice". *Educational Theory*.
6. Meyer, L. (1956) *Emotion and Meaning in Music*. Chicago: University of Chicago Press
7. Blechner, M. (2018) *The Mindbrain and Dreams: An Exploration of Dreaming, Thinking, and Artistic Creation*. NY: Routledge
8. Blechner, M. (1988) Differentiating empathy from therapeutic action. *Contemporary Psychoanalysis*, 24:301–310.
9. Vischer, R. (1873) *Über das optische Formgefühl: Ein Beitrag zur Aesthetik*. Leipzig: Hermann Credner. For an English translation of selections, see Wind, E. (1963) *Art and Anarchy*. London: Faber and Faber.
10. Johnson, M. & Larson, S. (2003) "Something in the way she moves" – Metaphors of musical motion. *Metaphor and Symbol*, 18:63–84